



# Erasmus+

loyihalarining beshinchi avlodi  
“Oliy ta’limda salohiyatni oshirish”  
(Capacity Building in Higher Education)  
2019 yil tanlov natijalari

Toshkent - 2019





with the support of the  
Erasmus+ Programme  
of the European Union

O'zbekistondagi Erasmus+ Milliy Ofisi tomonidan tayyorlangan

Ushbu risola Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi tomonidan  
moliyalashtirilgan

Risolada aks ettirilgan xulosalar Yevropa Komissiyasining fikrini  
ifoda etmaydi

## ERASMUS+ DASTURI

Erasmus+ dasturi - ta'lim, professional ta'limni taraqqiy ettirish, yoshlarni kamolotga yetkazish va sportni rivojlantirish sohalari bo'yicha 2014-2020 yillar uchun mo'ljallangan Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan dasturdir. Ushbu dastur turli yo'nalishlarda Yevropa davlatlari (Programme Countries) va dunyoning barcha Hamkor-davlatlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun mablag' ajratadi.

Erasmus+ Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan chegaralanib qolmagan holda, barcha sohalarda, ayniqsa oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik muhimligini e'tirof etadi. Dastur Yevropa Ittifoqining oldingi (Alfa, Edulink, Erasmus Mundus va Tempus) oliy ta'lim dasturlarining tajribasi va muvaffaqiyatlariga asoslanib xalqaro talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilar almashinuvini, shuningdek universitetlar o'rtasida xalqaro tajriba va go'yalarning almashishni qo'llab-quvvatlaydi.

Dastur Bryusseldagi Yevropa Ittifoqining Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va Bryusseldagi Ta'lim, audiovizual vositalari va madaniyat Ijroiya Agentligi (EACEA) va har bir 34ta Dastur davlatlardagi Milliy agentliklar (NAs) tomonidan amalga oshiriladi va Yevropa Komissiyasi yoki uni nomidan chop etiladi.

Belgilangan muddat, maqsad va shartlarga javob beradigan loyiha takliflarini taqdim etish uchun har yili o'tkaziladigan tanlov (Call for proposals) natijalariga ko'ra moliyalashtirish amalga oshiriladi. Yevropa Ittifoqining rasmiy jurnalida (C seriyasi) va/yoki Yevropa Komissiyasi, Milliy agentliklar yoki Ijroiya agentligining web-saytlarida loyihalar takliflari uchun tanlov e'lon joylashtiriladi.

Umuman olganda, 2014-2020 yillar uchun 16,5 milliard yevroga yaqin mablag' ajratilgan. Ushbu miqdorning 17%dan ortiq mablag' Dasturning to'rtta xalqaro komponentlarini amalga oshirish uchun yo'naltirilgan.

Erasmus dasturining keyingi 2021–2027 yillar uchun moliyaviy mablag'i ikki barobarga ko'payadi va bu o'ziga yarasha yanada ko'plab ta'lim vakillarining turli sohalarda ishtirok etishiga va grantlarga ehtiyojlar uchun yanada ko'proq imkoniyatlar bilan ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun Erasmus+ dasturining quyidagi yo'nalishlari amal qilmoqda:

1. Capacity Building in Higher Education
2. International Credit Mobility
3. Erasmus Mundus Joint Master Degrees
4. Jean Monnet

## **Oliy ta'limda salohiyatni oshirish/Capacity Building in Higher Education (CBHE)**

Mazkur yo'nalish (CBHE) doirasida Qo'shma loyihalar (Joint projects) va Strukturaviy loyihalar (Structural projects) moliyalashtiriladi. Har yili bo'lib o'tadigan tanlovlar asosida loyiha takliflarini topshirish mumkin. Batafsil ma'lumot quyidagi web-saytda mavjud: [http://ec.europa.eu/programmes/erasmus-plus/index\\_en.htm](http://ec.europa.eu/programmes/erasmus-plus/index_en.htm).

Erasmus+ dasturining "Oliy ta'limda salohiyatni oshirish-CBHE" yo'nalishi bo'yicha beshinchi tanlov doirasida 2019/2020 o'quv yilining yangi loyihalari uchun 2019 yil 7-fevralgacha jami 840 ta ariza takliflari topshirilgan. So'nggi besh oy ichida tanlovning bir necha bosqichlari, shu jumladan mustaqil ekspertlarning akademik baholari, shuningdek, har bir hamkor-davlatlardagi Yevropa Ittifoqi Delegatsiyalari bilan maslahatlashuv ishlari amalga oshirildi.

Dunyoning barcha mintaqalari uchun 2019 yilgi tanlovning umumiy byudjeti 136 million yevroni tashkil etdi va Markaziy Osiyoning beshta davlatlari uchun 9,42 million yevro mintaq uchun ajratilgan. Tanlov jarayonida 840 loyiha takliflari topshirilgan bo'lsa shundan dunyoning barcha davlatlari ishtirokida 136ta loyihani moliyalashtirish uchun tavsiya etildi.

Markaziy Osiyo mintaqasi uchun moliyalashtirish uchun 15 ta yangi loyiha tanlab olindi, shu jumladan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari ishtirokida 5ta loyiha, 2ta milliy loyiha va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ham 2ta yangi loyihada bevosita ishtirok etadi.

Ta'kidlash joizki, respublikaning 14 ta oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan Toshkent shahridan 7 ta universitet va respublikaning 6ta viloyatidan 7ta oliy ta'lim muassasalari ishtirokida 2 ta milliy loyiha (1.8 million yevro), Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston bilan hamkorlikda 2 ta mintaqaviy loyiha (1.8 million yevro), shuningdek, Falastin va Tunis universitetlari bilan 1ta mintaqalararo loyiha (1 million yevro) amalga oshiriladi

Yangi loyihalarda Yevropa Ittifoqiga a'zo 13 davlatdan 18 ta universitet, shuningdek, 5 ta Hamkor-davlatdan 13 ta universitet ishtirok etadi.

Markaziy Osiyo 2ta mintaqaviy loyihasi ekologiya risklarini baholash va Markaziy Osiyoda madaniy meros ob'yektlarini asrash, shuningdek, o'quv-tadqiqot markazlarni hamda ma'lumotlarni tahlil qilish ("BigData Intelligent Analysis") bo'yicha kurslarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Yana bir san'at sohasida loyiha Milliy san'at va dizayn instituti, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Yevropa universitetlari va Falastin va Tunis universitetlari ishtirokida bo'lib o'tadi. Ushbu loyiha tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fanlararo ko'nikmalarga bag'ishlanadi.

Ta'kidlash joizki, Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston davlat konservatoriyasi va Farg'ona politexnika instituti Erasmus+ loyihalarida birinchi marta ishtirok etadi.



Bakalavriat dasturini islohotlashtirish maqsadida mexatronika va robototexnika bo'yicha 2ta milliy loyihalar (MechaUZ), shuningdek kosmik tizimlar va aloqa bo'yicha yangi o'quv dasturini (SPACECO) ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Eng intiqib kutilgan yangiliklardan hamda respublika oliy ta'lim muassasalarining salohiyati oshib borayotganligiga yana bir dalolat sifatida, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) SPACECO loyihasining grant oluvchisi (grantholder) sifatida o'z faoliyatini olib boradi. Endilikda TATU butun xalqaro konsortium va loyiha byudjetini boshqarishda ishtirok etadi.

Loyihalar konsortiumlarining tarkibi, muddati va tasdiqlangan byudjeti to'g'risidagi ma'lumotlar bilan yangi loyihalar ro'yxati quyidagi jadvallarda 3ta tilda keltirilgan.

Yangi 5 ta loyihani hisobga olgan holda, Respublikada oliy ta'lim salohiyatini oshirishga qaratilgan Erasmus + loyihalarining ja'mi 51 ta universitet ishtirokida 37 ta loyihani tashkil etadi. 2019/2020 o'quv yilida "Oliy ta'limda salohiyatni oshirish (CBHE) bo'yicha uzoq muddatli loyihalarning umumiy soni 26 tani tashkil etadi. Erasmus+ dasturining ikkinchi yo'nalishi doirasida 61 ta universitet, shu jumladan Toshkent shahridagi 28 ta universitet va 11 ta viloyat va Qoraqalpog'istonning 33 ta universiteti ishtirokida Kredit mobiligi (Credit Mobility) Yo'nalishi bo'yicha 150 ta ikki tomonlama hamkorliklari doirasida o'qituvchilar va talabalar almashinuvi amalga oshirilmoqda.

Quyida barcha 5ta tanlov natijalari jadvali ko'rsatilgan:



## 5-chi tanlov, 2019 yil

### O'zbekiston Respublikasi OTMlari ishtirokidagi "Oliy ta'lim salohiyatini oshirish" yo'nalishi bo'yicha tanlab olingan loyihalar ro'yhati

№	Loyiha raqami va nomi	Loyiha konsortsium tarkibi			Loyiha davomiyligi va muddati
		Dasturiy-davlatlar universitetlari	Hamkor-davlatlar universitetlari		
1.	608564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP  MechaUz: Innovatsion g'oyalar va raqamli texnologiyalar yordamida O'zbekistonda bakalavr darajasi uchun mextronika va robotexnikani modernizatsiya qilish /Modernization of Mechatronics and Robotics for Bachelor degree in Uzbekistan through Innovative Ideas and Digital Technology	<b>Grant oluvchi: Salonikidagi Aleksandr texnologik o'quv instituti (Gretsiya)</b>  <b>Portugaliya:</b> Viana-dagi Kastelo Politehnika Instituti  <b>Gretsiya:</b> Janubi-Sharqiy Yevropa tadqiqot markazi (SEERC)  <b>Latvia:</b> Liepaja Universiteti, Vidzeme amaliy fanlar universiteti  <b>Litva:</b> Vilnius Gediminas Texnik Universiteti	<b>O'zbekiston:</b> Andijon mashinasozlik instituti, Farg'ona politehnika instituti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti, Toshkentdagi Turin politehnika universiteti, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi		36 oy  15/11/2019 14/11/2022

2.	<p>609574-EPP-1-2019-1-IT- EPPKA2-CBHE-JP</p> <p><b>ERAMCA: Markaziy Osiyodagi madaniy meros ob'ektlarining atrof-muhit xavfini baholash va ta'sirini kamaytirish / Environmental Impact assessment and mitigation of cultural heritage sites in Central Asia</b></p>	<p><b>Grant oluvchi:</b> Turin Politeknika Universiteti (Italiya)</p> <p><b>Germaniya:</b> Bauhaus Universiteti Weimar</p> <p><b>Xorvatiya:</b> Osijekdagi Josip Juraj Strossmayer Universiteti</p>	<p><b>O'zbekiston:</b> Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, Toshkent Turin politexnika universiteti</p> <p><b>Tojikiston:</b> Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Tojikiston tojik universitetining Xo'jand politexnika instituti, Akademik M. Osimi nomidagi tojik texnik universiteti</p>	<p><b>36 oy</b></p> <p><b>15/01/2020</b> <b>14/01/2023</b></p>
3.	<p>609715-EPP-1-2019-1-UZ- EPPKA2-CBHE-JP</p> <p><b>SPACECO: Kosmik tizimlar va aloqa muhandisligi bo'yicha yangi o'quv dasturi/ New Curriculum in Space Systems and Communicating and Engineering</b></p>	<p><b>Grant oluvchi:</b> Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti (O'zbekiston)</p> <p><b>Belgiya:</b> Antwerp'dagi Artesis Planitijn Universiteti kolleji</p> <p><b>Germaniya:</b> Coursento UG, EXOLAUNCH GIMBH, Berlin Texnik Universiteti</p> <p><b>Fransiya:</b> Sorbonne Universiteti Bolgariya: Sofia Texnik Universiteti</p>	<p><b>O'zbekiston:</b> O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat texnika universitetining Qarshi filiali, Toshkent Turin politexnika universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti qoshidagi akademik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha filiali</p>	<p><b>36 oy</b></p> <p><b>15/11/2019</b> <b>14/11/2022</b></p>



4.	<p>609821-EPP-1-2019-1-IT-EPPKA2-CBHE-JP</p> <p><b>MUSAE: Rassomlarning tadbirkorlik faoliyatlarini uchun ko'p tarmoqli ko'nikmalar/ Multidisciplinary Skills for Artists' Entrepreneurship</b></p>	<p><b>Grant oluvchi:</b> 'Alfredo Casella' Musiqa konservatoriyasi (Italiya)</p> <p><b>Italiya:</b> L'Aquila Tasviriy san'at akademiyasi, L'Aquila universiteti</p> <p><b>Belgiya:</b> Antwerp'dagi Artesis Plantijn Universiteti kolleji</p> <p>Finlandiya: JAMK amaliy fanlar universiteti</p>	<p><b>O'zbekiston:</b> Milliy rassomlik va dizayn instituti, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent Turin politexnika universiteti, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi</p> <p><b>Falastin:</b> Birzeit universiteti, Dar al-Kalima san'at va madaniyat universiteti, Falastin politexnika universiteti</p> <p><b>Tunis:</b> Sfax universiteti, Tunis universiteti</p>	<p>36 oy</p> <p>15/01/2020 14/01/2023</p>
5.	<p>610170-EPP-1-2019-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP</p> <p><b>ELBA: Markaziy Osiyoda "BigData Intelligent Analysis" bo'yicha o'quv va ilmiy markazlarni tashkil qilish/ Establishment of training and research centres and Courses development on Intelligent Big Data Analysis in CA</b></p>	<p><b>Grant oluvchi:</b> Santyago-de-Kompostela Universiteti (Ispaniya)</p> <p><b>Italiya:</b> Turin Politexnika Universiteti</p> <p><b>Sloveniya:</b> Primorska universiteti</p>	<p><b>O'zbekiston:</b> Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va foydalanish instituti, Toshkentdagi Turin politexnika universiteti, Urgananch davlat universiteti, Buxoro muhandislik texnologiya instituti</p> <p><b>Qozog'iston:</b> Xalqaro Axborot Texnologiyalari Universiteti, A.Baytursinov nomidagi Xo'jalik boshqaruvi huquqida faoliyat yurituvchi Respublika davlat korxonasi Kostanay davlat universiteti</p> <p><b>Qirg'iziston:</b> Qirg'iz davlat texnika universiteti, O'sh texnologiya universiteti</p> <p><b>Tojikiston:</b> Kulob, Texnologiya va innovatsion menejment instituti, Tojikiston texnologiya universiteti</p>	<p>36 oy</p> <p>15/11/2019 14/11/2022</p>

Loyihalar faoliyati tavsifi va erishilgan ilg'or tajribalar hamda safarbarlikning samaralari har yili chop etiladigan Erasmus+ nashrlarida mavjud. Ushbu nashrlarni quidagi [www.erasmusplus.uz](http://www.erasmusplus.uz) web-sayt orqali yuklab olishingiz mumkin.

CBHE yo'nalishi bo'yicha loyiha takliflarini topshirmoqchi bo'lgan OTMLar diqqatiga milliy ustuvor yo'nalishlar ro'yhati va loyihalar nomlari bilan birga berilmoqda.

## **MILLIY USTUVOR YO'NALISHLAR RO'YHATI ERASMUS +**

**Oliy ta'limda salohiyatni oshirish (CBHE)**

### **Kategoriya 1 - O'quv dasturlarini islohotlashtirish**

✓ **Ta'lim (RUECVET)**

*Pedagogika, maktabgacha bo'lgan ta'lim muassasalar o'qituvchilarini tayyorlash, sohasiz o'qituvchilarni tayyorlash; soha mutaxassislari mavjud o'qituvchilarni tayyorlash*

✓ **Biologiya va o'xshash fanlar**

*Biologiya va biokimyo*

✓ **Aniq fanlar**

*Kimyo, yerni o'rganish fani, fizika*

✓ **Matematika va statistika (ECCUM, ITEM)**

*Matematika va statistika*

✓ **Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (INTRAS, CLASS, ELBA)**

*Komputerlardan foydalanish, ma'lumotlar bazasi va tarmoqlarni ishlab chiqish va boshqarish, dasturiy ta'minot va ilovalarini ishlab chiqish va tahlili*

✓ **Muhandislik fanlari va muhandislik ishi (ACADEMICA, FSAMP, RENES, GREB, DSinGIS, MECHAUz, SPACECO)**

*Kimyoviy texnologiya va ishlov berish, atrof-muhitni muhofaza qilish texnologiyasi, elektr quvvati va energiya, elektronika va avtomatlashtirish, mexanika va metallni qayta ishlash, transport vositalari, kema va uchuvchi moslamalar*

✓ **Ishlab chiqarish va qayta ishlash**

*Oziq-ovqat sanoati, materiallar (yog'och, qog'oz, plastik, shisha), Ishlab chiqarish va qayta to'qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal, charm, konchillik sanoati va qazib olish qayta to'qimachilik, kiyim-kechak, poyabzal, charm, konchillik sanoati va qazib olish*

✓ **Arxitektura va qurilish (ERAMCA)**

*Arxitektura va shaharsozlik, uy-joy va jamiyat qurilishi*

✓ **Qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik, baliqchilik va veterinariya (ECAP, BUZNET, EPCA, TOPAS, NICOPA)**

*O'simlikshunoslik va chorvachilik, bog'dorchilik, o'rmonchilik, baliqchilik, veterinariya*

✓ **Sog'liqni saqlash (TechReh, MODEHED, SPHERA, IHOD, CHILDCA)**

*Stomatologik tadqiqot, tibbiyot, hamshiralik ishi va akusherlik, tibbiy diagnostika va davolash texnologiyasi, terapiya va reabilitatsiya, farmatsevtika, an'anaviy va majburiy tibbiyot va terapiya*

✓ **San'at – Markaziy Osiyo uchun ustuvor yo'nalishi (MUSAE)**

✓ **San'at – Markaziy Osiyo uchun ustuvor yo'nalishi (MUSAE)**

## **Kategoriya 2 - Oliy ta'lim muassasalarning boshqaruvi va faoliyat sifatini oshirish:**

✓ **Boshqarish, strategic rejalashtirish va OTMLar boshqaruvi (UNICAC, TALENT, DECIDE)**

*(jumladan, inson resurslarini boshqarish, moliy menedjmenti va boshqalar)*

✓ **Sifat ta'minoti jarayoni va mexanizmlari (IMEP, IQAT, PAWER)**

*(jumladan, sifat ta'minoti uchun mexanizm va ko'rsatkich nazoratini ishlab chiqish)*

✓ **Ilmiy-tadqiqot va innovatsion salohiyatni rivojlantirish (UZDOC 2.0)**

*(jumladan, ilmiy tadqiqotdan tashqari)*

## Kategoriya 3 - Jamiyatda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish:

✓ **Maktab va kasb-hunar ta'lim tizimini uchlamchi bo'lmagan darajada rivojlantirish (MAGNET)**

*(jumladan, o'qituvchilarni ish faoliyatidan uzmaganda holda o'qitishni islohotlashtirish hamda o'qituvchilar kasbini isloh qilish)*

✓ **Bilim uchburchagi, innovatsiyalar (ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va biznes o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash)**

✓ **Universitetlar va tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik (CACTLE)**

*(talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti, tadbirkorlik, bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalalarida yordam berish)*

✓ **Oliy ta'limda yangi texnologiyalar (MIND, NURSLIN, HIEDTEC)**

*(Ochiq ta'lim resurslari, aloqalar, raqamli malakalar va o'qitish uslublarini olib kirish hamda qiziqish bildirgan tomonlarning safarbarligi, shu qatorda o'qituvchilar, talabalar, iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlar orqali oliy ta'lim tizimini islohotlashtirish orqali qo'llab-quvvatlash)*



Ushbu dastur Yevropa Komissiyasi rahbarligida Ta'lim, audiovizual vositalar va madaniyat Ijroiya Agentligi (EACEA) tomonidan amalga oshiriladi [http://eacea.ec.europa.eu/erasmus-plus\\_en](http://eacea.ec.europa.eu/erasmus-plus_en)

O'zbekistondagi Erasmus+ Milliy Ofisi  
Toshkent, 100084, Amir Temur ko'chasi, 107B

Xalqaro biznes markazi

Tel: + (998) - 71 238 9918/21

Faks: + (998) - 71 238 58 99

[neo@erasmusplus.uz](mailto:neo@erasmusplus.uz)

<http://erasmusplus.uz>

<https://www.facebook.com/erasmusplusuz>

[https://t.me/erasmus\\_uzb](https://t.me/erasmus_uzb)

Instagram: [erasmusinuzbekistan](#)

